



TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLAR VA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI AHAMIYATI

Ismatov Sobirjon

Navoiy shahar Prezident maktabi 11- sinf o'quvchisi

Kirish. Hozirgi kunda ta'lrim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axbarot texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha ananaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosolarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Usullar va natijalar. Innovatsion texnologiyalar (1-rasmga qarang) pedagogik jarayon hamda o'qituvchi hamda talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv usullardan to'liq foydalilanildi. Interaktiv usullar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi[1].

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talaba dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlari so'nmasligini ta'minlash;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish.


O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda talaba talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnalogiya tanlanadi, masalan natijaga erishish uchun, balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axbarot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va talabaga bog'liq[2].

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Shu bilan birga o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, ta'limning texnik vositalarini, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak. Oqituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak[3].

Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki darsning tenologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek juda ko'p usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq[4].



1-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotning muhim yo'naliishi sifatida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e'tirof etildi[5]. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi, shuningdek, rivojlangan



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishquyidagi shartlar asosida ta'minlandi.


Ta'lism jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishi bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (2-rasmga qarang):

Ta'lism muassasalarida ta'lism jarayonini loyihalash ikki darajada:

a) o'qituvchi faoliyati darajasida (ta'lism jarayonining alohida qismlarini loyihalash);

b) ta'lism menedjeri faoliyati darajasida (ta'lism jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi.

Ta'lism jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniylatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarni ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.



2-rasm. Ta'lism jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari

Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallahsga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limgdag'i innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan engib o'tiladigan uzilishlardir[6]. Yana kattaroq sabab esa ta'limi bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq[7].

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoqlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya -amaliyat va nazariyaning muhim qismi bo`lib, ijtimoiy-madaniy ob`ekt sifatlarini yaxshilashga yo`naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Bu q`oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo`lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo`lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tuq`ilib, ta'lif mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo`ladi, shuningdek, umuman ta'lif tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Innovatsiya-ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo`llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo`lgan oxirgi natijadir. Bugun ta'lif tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O`rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida «innovatsion faoliyat» tushunchasiga ta'rif berilgan bo`lsada, bu sohada hammaga ma'qul keladigan va innovatsion faoliyatning to`liq mazmunini ochib beradigan yagona ta'rif yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo`lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u q`oyalar maydonida ham va alohida bir sub'ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo`ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo`lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo`naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo`yicha tuq`ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo`llabquvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyat mulohazasidan paydo bo`ladi.

REFERENCES:

1. Ishmuhamedov R., Mirsalieva M "O'quv jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalari" Toshkent 2014 y.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma / Seriya "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar". – T.: TDIU, 2013. – 95 bet.
3. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.
4. Djumabaeva J. S., Sayfullaeva R. R., Mamatova D. B. Modern Methods Of Teaching English In Preschool Institutions //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 3. – S. 1735–1742-1735–1742.
5. Djumabaeva Jamila Sharipovna Plesionimiya i graduonimiya v angliyskom i uzbekskom yazlykah // European journal of literature and linguistics. 2015. №2. URL:
<https://cyberleninka.ru/article/n/plesionimiya-i-graduonimiya-v-angliyskom-i-uzbekskomyazykah> (data обращения: 30.05.2023).
6. Нарзиев Ш. М. Раҳимова Азиза Ҳусан Кизи Применение и анализ педагогических методов в учебном процессе. – 2021.